

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

---

## FarDU. ILMİY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

---

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMİY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

---

### Tahrir hay'ati

**Bosh muharrir**  
**Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)  
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)  
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)  
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)  
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)  
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)  
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)  
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)  
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)  
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)  
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)  
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)  
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

---

### Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)  
OTAJONOV S. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)  
KARIMOV E. (O'zbekiston)  
RASULOV R. (O'zbekiston)  
ONARQULOVA K. (O'zbekiston)  
YULDASHEV G. (O'zbekiston)  
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)  
DADAYEV S. (O'zbekiston)  
ASQAROV I. (O'zbekiston)  
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)  
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)  
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)  
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)  
YULDASHOV A. (O'zbekiston)  
XOLIQOV S. (O'zbekiston)  
MO'MINOV S. (O'zbekiston)  
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)  
SHUKUROV R. (O'zbekiston)  
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)  
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)  
KASIMOV A. (O'zbekiston)  
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)  
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)  
G'OFUROV A. (O'zbekiston)  
ADHAMOV M. (O'zbekiston)  
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)  
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)  
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)  
USMONOV B. (O'zbekiston)  
ASHIROV A. (O'zbekiston)  
MAMATOV M. (O'zbekiston)  
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)  
XAKIMOV N. (O'zbekiston)  
BARATOV M. (O'zbekiston)

---

**Muharrir:** Sheraliyeva J.

**Tahririyat manzili:**

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.  
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60  
Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti

---

Bosishga ruxsat etildi:  
Qog'oz bichimi: - 60x84 1/8  
Bosma tabog'i:  
Ofset bosma: Ofset qog'ozi.  
Adadi: 10 nusxa  
Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

**Manzil:** 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

---

Farg'ona,  
2022.

**X.Mamajonov**

Amir Temur hamda To'xtamishxon o'rtasidagi diplomatik munosabatlarning manbashunosligiga doir ayrim fikr-mulohazalar ..... 113

## ADABIYOTSHUNOSLIK

**X.Maxsudova, Sh.Shahobiddinova**

Ergonimlarning leksik-semantik xususiyatlari ..... 118

**A.Abduraxmonov**

Zamonaviy o'zbek nasrida rangning g'oyaviy yo'nalishni tashkillashdagi ahamiyati ..... 122

**B.To'rayeva**

Xronotop poetikasining o'ziga xos xususiyatlari ..... 127

**N.Karimova**

Abdulla Qodiriy asarlarida folklor xronotopi ..... 134

**P.Ro'ziboyeva, B.Karimov**

Abdulhamid Cho'lpon hikoyalarida ayollar obrazi talqini, ayollar erki va ta'limi masalasi ..... 138

**N.Avazov**

"Padarkush"ning ta'siri va jadid dramalarining yaratilishi ..... 143

**Sh.Axmedova**

Omon matjon she'riyatining badiiy jihatlari ..... 151

**N.Soatova**

Shuhratning masal va hajviy she'r yaratish mahorati ..... 155

**Sh.Turg'unov**

Harbadoshlarning o'langa nisbatan ta'rifi xususida ..... 162

## TILSHUNOSLIK

**Sh.Iskandarova, F.Musayeva**

Muhammad Yusuf she'rlarida zamon tushunchasining o'rganilishiga doir ..... 168

**D.Ganiyeva**

Turli tizimdagi tillarda nisbat shakllarining sinkretikligi va polifunksionalligi ..... 171

**Sh.Amonturdiyeva**

Diniy matnlarning fonetik imkoniyatlari ..... 176

**N.Xoshimova**

Bilvosita gaplarning turli madaniyatlarda ifodasi ..... 184

**M.Hojiyeva**

Terminologik kompetentlik – bo'lajak filolog mutaxassislarni tayyorlashning asosi sifatida ..... 187

**V.Giyosova**

Bolalarga oid murojaat birliklariga doir mulohazalar ..... 190

**S.Ahmadaliyeva**

Pragmatonimlarning farqlovchi elementlari va funksiyalari haqida ..... 193

**H.Saipova**

Nutqning sintaktik-kompozitsion tahliliy usullari ..... 197

## MATEMATIKA

**T.Ergashev, D.Urinboyeva**

Ikkinchi tartibli ikki o'zgaruvchili gipergeometrik funksiyalar nazariyasi haqida ..... 201

**B.Kadirkulov, M.Jalilov**

Involutsiya qatnashgan kasr tartibli parabolik tipdagi tenglama uchun qo'yilgan teskari masala ..... 209

**N.Murolimova**

Vazn funksiyasiga ega bo'lgan riman-liuvil va atangana-baleanu kasr tartibli operatorlar qatnashgan to'lqin tenglamasi uchun chegaraviy masala ..... 214

## FIZIKA - TEXNIKA

**X.Raxmonjonov, Sh.Shuxratov**

Zamonaviy elektr jihozlarini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish ..... 223

**M.Abdullayeva, Sh.Shuxratov**

Texnologiya ta'limida milliy hunarmandchilikni kreativ yondashuv asosida o'rganishni pedagogik-psixologik imkoniyatlari ..... 228

## DINIY MATNLARNING FONETIK IMKONIYATLARI

## ФОНЕТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РЕЛИГИОЗНЫХ ТЕКСТОВ

## PHONETIC POSSIBILITIES OF RELIGIOUS TEXTS

Amonturdieva Shoira Ravshanovna<sup>1</sup><sup>1</sup>Amonturdieva Shoira Ravshanovna

– Termiz davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsent v.b Filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori

**Annotatsiya**

Ma'lumki, so'ngi yillarda mamlakatimizda diniy e'tiqod erkinligi mustahkamlanayotganligi, islomiy ma'naviy-ma'rifiy asarlarning keng o'rganilayotgani va ularning nashr etilayotgani, bu yo'nalishda qator ilmiy tadqiqotlar olib borilayotgani tilimizda arabcha so'zlarning faollashuviga ham sabab bo'ldi. Ayni jihat ayrim so'z va jumalarning imlosi va talaffuzida ma'lum bir chalkashliklar kelib chiqishiga olib keldi. Bu kabi muammolarning bartaraf etilishiga ona tilimizning yashash qonuniyatlariga tayangan holda harakat qilish to'g'ri bo'ladi. Barcha tillarda bo'lgani kabi o'zbek tilida ham boshqa tildan so'z qabul qilishning o'z qonuniyatlari mavjud. Unga ko'ra, o'zga tildan qabul qilinayotgan har qanday til birligi qabul qilayotgan tilning talaffuz qoidalariga mos kelishi lozim bo'ladi. Agar shunday qilinmasa, talaffuzda notabiilik, zo'rama-zo'rakilik vujudga keladi.

**Аннотация**

Как известно, в последние годы в нашей стране усиливается свобода вероисповедания, широко изучаются и публикуются исламские духовно-просветительские произведения, проводятся научные исследования в этом направлении, что также способствовало активизации использования арабских слов в нашем языке. Этот же аспект привел к возникновению определенной путаницы в написании и произношении некоторых слов и предложений. Правильно будет стремиться к устранению таких проблем, опираясь на законы жизни родного языка. Как и во всех языках, в узбекском языке есть свои законы восприятия слов из другого языка. Согласно ему, любая языковая единица, принимаемая из другого языка, должна соответствовать правилам произношения принимаемого языка. Если этого не сделать, в произношении возникнет нецензурная брань, нецензурная брань.

**Abstract**

It is known that in recent years, the strengthening of freedom of religious faith in our country, the widespread study of Islamic spiritual and educational works and their publication, a number of scientific studies in this direction have also caused the activation of Arabic words in our language. The same aspect led to the emergence of a certain confusion in the spelling and pronunciation of certain words and sentences. It will be correct to act on the elimination of such problems, relying on the laws of residence of our native language. As in all languages, the Uzbek language has its own laws for accepting words from another language. According to him, any language unit adopted from another language will have to comply with the rules of pronunciation of the language you are receiving. If this is not done, then in the pronunciation there will be indecision, zorrama-straining.

**Kalit so'zlar:** fonetika, lingvistik yarus, diniy matn, orfoepik me'yor, lingvistik birlik, leksik va grammatika.**Ключевые слова:** фонетика, языковой ярус, религиозная утренья, орфоэпическая норма, языковая единица, лексико-грамматика.**Keywords:** phonetics, linguistic yarus, religious matn, arfoepic norm, linguistic unity, lexical and grammar.**KIRISH**

Ma'lumki, har qanday matn og'zaki va yozma ko'rinishga ega bo'ladi. Xuddi shunday, tilning lingvistik yaruslaridagi vositalar diniy matnlarda ham o'zining umumiy va farqlanib turuvchi jihatlari bilan ishtirok etadi. Bu jarayonda ma'lum ma'noda uslubning shakllanishidagi ekstralingvistik omillar sabab bo'ladi. Bu fikrlar og'zaki diniy matnlarning fonetik qurilishiga ham tegishli.

Diniy matnlarning har qanday turini kuzatganimizda, tarixiy va zamonaviy (diaxronik va sinxronik) ko'rinishda bo'lsa ham hamisha davr adabiy tili me'yorlariga amal qilib kelinganligini ko'rish mumkin.

Ta'kidlash kerakki, har qanday og'zaki nutqni yuzaga keltirishdan maqsad tinglovchiga muayyan ta'sir ko'rsatish hisblanadi. Diniy matnlarning eng faoli ko'rinishi og'zaki shakldagilaridir. Shu bois, ularni fonostilistik jihatdan kuzatish muhim sanaladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Diniy matnlarning fonetik xususiyatlari haqida gap ketganda, SH.Yusupovning «Diniy matnlarning lingvopragmatik tadqiqi» mavzusidagi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasida o'zbekcha diniy matnlarda arabiy ifodalarning talaffuzi, orfoepik me'yorlari, arab tiliga xos bo'lgan tovushlarning o'zbek tilining artikulyatsiyasidagi ko'rinishi, diniy nutqda lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlarning namoyon bo'lishi hamda ularning intonatsion xususiyatlariga oid qimmatli fikrlarini eslash o'rindir.

Taniqli tilshunos J.Vandries: «Tilshunoslar tildagi uch tarkibiy qismni: tovushlar, grammatika va lug'atini bir-biridan ajratadilar», [1, 16] - degan fikrini sal kam yuz yillar avval aytgan edi. Ushbu tamoyil bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Shunga ko'ra, tovush tilni namoyon etuvchi asosiy materiallardan biridir, ya'ni til usiz namoyon bo'lmaydi. Yana bir tilshunos L.R.Zinder qayd etganiday, tilning zaruriy qismini tovush tomoni tashkil qiladi. [2, 4]

O'zbek tilshunosligining zabardast vakillaridan biri E.Qilichev ham «So'zdagi ma'no tovushlar vositasida zohir bo'ladi. Tinglovchi ham ma'noni tovushlar vositasida qabul qiladi. Shuning uchun ham so'z tarkibidagi biror tovushning talaffuzda o'zgarishi (cho'zilishi, almashtirilishi, tushirib qoldirilishi) ma'noga ta'sir qiladi. Bunday hollarda so'zning denotativ ma'nosi o'zgarib, faqat konnotativ ma'nosi o'zgaradi» - deya ta'kidlagan edi. [3, 88]

Bunga o'xshash fikrlar tilshunos olimlarning qarashlarida juda ham ko'p uchraydi. Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, matnning shakllanishida, muloqotda tovushlar asosiy funktsiyani bajaradi. Tovush va prosodik vositalar matndagi gapni shakllantiruvchi, uning stilistik imkoniyatlarini belgilovchi vositalardir.

Avvalo, bu turdagi matnlarning og'zaki ko'rinishlarini sanab o'tish lozimdir. Bularga: *namoz (odatdagi 5 mahal farz, juma va janoza namozlari), Qur'on qiroati, amru ma'ruf, nahiy munkar, xutba, maveze* kabilar kiradi.

Aytish kerakki, diniy matnning og'zaki ko'rinishi namoyon bo'ladigan eng ommabop auditoriya – bu namoz, ayniqsa, juma va janoza namozlariga to'plangan jamoadir. Bilamizki, musulmonlar uchun farz bo'lgan namoz matni Qur'oniy sura va oyatlar asosida shakllantiriladi. Shunday bo'lsada, niyat va yakuniy duo qismida o'zbekcha so'zlardan foydalaniladi. Masalan, *niyat qildim bomdod namozimning 2 rakatli farzini xolis Alloh uchun o'z vaqtida o'qishni* kabi. Yoki yakuniy duo qismida *o'qigan namozlarimni o'z dargohingda qabul qilgin, avvalgi va oxirgi gunolarimni avf et* kabi. Islom dini Arabistonda yuzaga kelib, Allohning kalomi bo'lgan Qur'on ham ushbu tilda bayon qilinganligi sabab undagi sura va oyatlarni noto'g'ri talaffuz qilish mumkin bo'lmaganligi uchun namozda ularni qo'llaganda arabiy talaffuzga qat'iy amal qilish talab etiladi. Boisi Qur'onni o'qish, qiroat qilish uchun arabcha talaffuz me'yorlarini bilish assosiy qoidadir. Arabiy so'zlardagi tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilinishi so'z yoki gap ma'nosining butunlay o'zgarib ketishiga sabab bo'lishi mumkin. Masalan, "Assalomu alaykum" – "Sizga tinchlik tilayman", "Va alaykum assalom" – "Sizga ham tinchlik bo'lsin" so'zlarida ulkan ma'no, ezgu tilak mujassam.

Salom beruvchi "Assalomu alaykum" desa, "Va alaykumus-salomu va rahmatulloh" deb alik olinadi. Agar u "Assalomu alaykum va rahmatulloh" deb salom bersa, "Va alaykumus salomu va rahmatullohi va barokatuh" deb alik olinadi. Salom beruvchi "Va barokatuh" qo'shimchasini ham qo'shsa, alik oluvchi ham faqat o'sha qo'shimchani qo'shadi. "As-Salom" Alloh taoloning go'zal ismlaridan biridir. Yaxshilab salom bering, yaxshilab alik oling. Ayrimlar "assomalaykum", "vassomalaykum" deya noto'g'ri talaffuz qilishganda, bu go'zal duoning ma'nosi buziladi. [4]

Allohning muborak ismlaridan biri Salom, uning sifati va darajasi Qur'oni karimda bunday bayon etiladi: «**Bas, qachon uylarga kirsangizlar, bir-birlaringizga Alloh huzuridan bo'lgan muborak pokiza salomni aytinglar** (ya'ni «Assalomu alaykum», denglar)» (Nur, 61). «**Qachon sizlarga biror salomlashish (iborasi) bilan salom berilsa, sizlar undan chiroyliroq qilib alik olingiz yoki o'sha (ibora)ni qaytaringiz. Albatta, Alloh har bir narsani hisobga oluvchi Zotdir**» (Niso, 86).

## NATIJALAR

Odatda diniy yig'inlarda ommaga *amri ma'ruf, maveze, nahiy munkar qilinadi, xutba o'qiladi* (juma namozida). Diniy nutqning ushbu ko'rinishlarida din peshvolari, ulamolarning adabiy til me'yorlariga qat'iy rioya qilishga bo'lgan harakati ifodadan sezilib turadi. Shu jihatlariga ko'ra, diniy nutq uslubi rasmiy, ilmiy va publitsistik matnlar uslublariga yaqin turadi. Bu o'rinda ulamolarning

bilim darajasi, tajribasi, ijtimoiy mavqei singari omillari, ya'ni individual jihatlari muhimdir. Sababi diniy ilmi boy bo'lgan, nutqi ravon notiq jamoga yaxshi ma'ruza qiladi.

Mazkur fikrning isbotini avvalgi tadqiqotimizda 2018-yilning 14-sentabr kuni Samarqand shahridagi «Ruhobod» masjidining imom xatibi To'lqin hoji Amirovning juma namozi oldidan qilgan 30 daqiqalik amru ma'rufini fonetik jihatdan tahlil qilish orqali asoslagan edik.[5] Bunda «Muloqot jarayonida prosodik vositalarning lingvopragmatik xususiyatlari» mavzusida tadqiqot ishlari olib borgan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori M.Gazievaning eksperimental dasturidan foydalanilgan edi. [6]

Audioyozuv ko'rinishidagi ushbu ma'ruzani tahlilga tortganimizda, imomning hozirgi o'zbek adabiy tili me'yorlariga, jumladan, talaffuz me'yorlariga mumkin qadar amal qilinganligi yuzaga chiqqandi. Bu jihatlarni boshqa imom domlalarimiz ma'ruzalarida ham ko'rish mumkin. Ayniqsa, SHayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarining nutqiy mahoratlari mukammalligi, jo'yaliligi, vazminligi, ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. Bu hazratning o'ta yuqori bilim egasi ekanliklari, dinga muhabbatlari yuqoriligi, yaxshi notiq, ommaga ta'sir ko'rsata oladigan darajada voiz bo'lganliklaridan dalolatdir.

Aynan yuqoridagiday nutq talablariga amal qilinishi notiq mahoratining eng muhim jihati sanaladi. Boisi har bitta lingvistik birlikning nafaqat ma'nosi tushunarli bo'lishi, shu bilan birga, talaffuzi aniq bo'lishi ham nutq mazmun-mohiyatining tinglovchiga yetib borishida juda muhim hisoblanadi. Zero, tilshunos olimlarimiz aytib o'tganlariidek, «So'zlovchi matnni talaffuz qilar ekan, talaffuz akti ma'lum axborotni tinglovchiga yetkazish emas, uni to'g'ri talaffuz qilish vazifasini bajaradi. Shuning uchun ham nutqiy aktning lokutiv aspekti faqat tovush, so'z va qurilmalarni ma'lum fonetik, leksik va grammatik qoidalar asosida to'g'ri talaffuz qilish bilan chegaralanadi».<sup>2</sup> [7,42] Bundan anglash mumkinki, ulamolarning o'z nutqlarida (o'zbek tilida va'z o'qisalar ham) arab tili orfoepik me'yorlariga rioya qilishlari o'rinni bo'lib, ayni jihat diniy nutqning koloritini yuzaga chiqishini ta'minlaydi.

M.Gazieva ta'kidlaganidek, "Nutqiy muloqotda melodika asosiy ovoz toni chastotasi o'zgarishidagi ko'tariluvchi, pasayuvchi va tekis tonlar kesimida gersga asoslangan akustik parametrlar orqali gapning kommunikativ tiplarini shakllantiradi, bundan tashqari, urg'uning ditsebal miqdoriga asoslangan intensiv harakati ham normal, sekin va emotsional (me'yordan ortiq) nutq kabi ifoda tiplarini farqlaydi". [8,23]

Diniy mazmundagi ma'ruza mualliflari (*din peshvolari, imomlar, mudarris va qorilar*) nutq jarayonida talaffuz me'yorlariga jiddiy e'tibor berishadi, har bitta so'zni dona-dona qilib, shoshmasdan talaffuz qilishadi. Kerakli so'zga maxsus urg'u beradi, zarur o'rinda ohangni pasaytirib, lozim bo'lganda kuchaytirib boradi.

Ayni o'rinda H.Jamolxonovning «Nutqda ovozning (tonning) baland-past tarzda to'lqinlanishi melodikani yuzaga keltiradi» degan fikrini eslash joiz. Chunki «melodika... gapning ifoda maqsadiga yoki emotsionallikka ko'ra turlarini belgilashda, sintagmalarni, kirish so'z yoki kiritma gaplarni ifodalashda muhim vosita sanaladi». [9,82]




Tadqiqotchining arab tiliga xos bo'lgan tovushlarning o'zbek tilidagi ifodasi yoki imomlar ma'ruzasidagi intonatsion xususiyatlarga doir eksperimental tahlillari e'tiborga molik. [10]

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, biz ham avvalgi ishimizda Samarqand shahridagi «Ruhobod» masjidining imom xatibi To'lqin hoji Amirovning juma namozi oldidan qilgan 30 daqiqalik amru ma'rufini fonetik jihatdan eksperimental tahlil qilgandik va shunga ko'ra diniy nutqning fonetik uslubi borasida aniq tasavvurlar hosil qildik. Imom nutqining fonetik manzarasini kompyuter yordamida olingan diagramm ko'rinishi quyidagicha bo'lgan edi:

*Bu banda kim edi, Allohim!*


<sup>2</sup> Ҳакимов М. Нутқий актлар назарияси. –Фарғона, 2020. –Б.42.

TILSHUNOSLIK




Diagrammadan ma'lum bo'ladiki, *kim* so'zi 199 gts melodik cho'qqi bilan talaffuz qilingan va urg'uning intensiv harakati *Alloh*-الله so'ziga kelganida 75,28 db.ga tushgan. Bu nutqning ta'sirli bo'lishi uchun eng kerakli va muhim hisoblangan so'zga urg'u berilganligidan, nutq muallifi gapdagi aynan *kim* va *Alloh* so'zlarini ana shunday birliklar sifatida ta'kidlaganligidan dalolat beradi.


Navbatdagi misol ham fikrimizni tasdiqlaydi:




Diagrammada *Alloh, Parvardigori olam, bu bir aziz bandaning, o'zing yaratgan bir aziz insonning boshi ekan* gapining akustikasi aks etgan. Unda o'zlarning amplitudasini quyidagi grafik asosida izohlash mumkin:



Mana bu diagrammadan esa tovush tebranishi amplitudusining apogeyida turgan so'z – *bir* ning talaffuzi 86,18 db. bo'lganligi aks etadi.



Uning grafik ko'rinishi esa quyidagicha:



Gapdagi *Parvardigori olam* jumlasining talaffuz perigeyi 9,412 db.ga tushib ketgan. Aslida u matnda undalma vazifasida kelgan *Alloh* so'zi bilan bir xil qiymatga ega, ya'ni u ham undalma. Ikkalasi birgalikda qavatlangan undalmani tashkil etmoqda. Shunday ekan, ularning talaffuz chastotasi ham bir xil bo'lishi lozim edi. Odatda, biz ham uning yozuvdagi ifodasini shunday qabul qilamiz.

Ammo kompyuter yordamida amalga oshirilgan fonoakustik kuzatishlar bu fikrni tasdiqlamayapti. Bu ikki undalma bir xil darajada talaffuz etilmaganligini ko'rsatmoqda. Birinchi undalma yuqori, ikkinchisi undan past darajada aytilib, ifodada nutq tempining tushib ketganligini ko'rsatmoqda.

Buning izohini fonostilistik tahlillardan izlaymiz. Kuzatishlardan ma'lum bo'ladiki, mazmunan va leksik-grammatik jihatdan bir xil qiymatga ega bo'lgan bu undalmalar faqatgina eshitish va his qilish [11,81-90] jarayonida sezilishi mumkin bo'lgan muayyan stilistik farqlarga ega.



## TILSHUNOSLIK

Nutq muallifi *Alloh* soʻzini kuchli hayajon bilan aytgan, *Parvardigori olam* jumlasiga kelganda, oniy tezlikda vaziyat oʻzgargan – talaffuz tempining pasayishida ham hayajonning davomligi, ham yuzaga kelgan ruhiy iztirob ifodalangan. *Allohim va Parvardigori olam* dan keyingi pauza nutq muallifining holatini aniq aks ettiruvchi dalillar hisoblanadi. Ularning talaffuzidagi farq bizning ana shunday fikrga kelishimizga imkon berdi. [12,68-70]

Bu tarzda eksperimental kuzatishlar yordamida T.Amirov nutqining ayrim prosodik jihatlari haqida mulohaza yuritib oʻtdik.

Bunda, albatta, ekstralingvistik omillardan biri boʻlgan – auditoriyani eʼtiborga olish zarur boʻladi. Auditoriya diniy eʼtiqodiga koʻra birlashgan, ammo dunyoqarashi va yoshi, ijtimoiy mavqei jihatdan turlicha boʻlgan kishilar jamoasidan iborat. Shunga koʻra amri maʼruf qiladigan ulamoning oldiga barcha uchun tushunarli va taʼsirchan nutq soʻzlash talabi qoʻyiladi. Ushbu talabga javob berish uchun notiq diniy ilmdan yaxshigina xabardor boʻlishi lozim.

Kuzatgan maʼruzamizda imomning bu talablarga jiddiy eʼtibor qilinganligi koʻrindi. Bu jihatlar uning soʻzlarni shoshilmasdan, dona-dona qilib talaffuz qilishda, soʻzga urgʻu berishga nihoyatda ehtiyotkorlik bilan yondashilganligida koʻrindi.

«Urgʻu – turli fonetik vositalar (mas. ovozni kuchaytirish) orqali boʻgʻin yoki soʻzni ajratish, shu ajratishga xos kuchli talaffuz». [13.117] Urgʻuning ham bir qancha turlari boʻlib, soʻz urgʻusi yoki leksik urgʻu va mantiqiy (logik) urgʻu bir biridan farqlanadi.

## MUHOKAMA

A.Gʻulomovning «oʻzbek tilida logik urgʻu, boshqa koʻpgina tillardagi kabi fikriy jihatdan ahamiyatli boʻlgan elementni ajratish uchun xizmat etadi. Bu ajratish, umuman, oʻsha elementning kuchli talaffuzi bilandir. Bu kuchayish oʻsha elementning soʻnggi boʻgʻinida oʻzining eng yuksak nuqtasiga yetadi», degan fikrlarining [14,30] amaldagi isboti ana shu nutqda koʻrinadi. Mana bu *Juma namozi bu miskinlarning haji deb aytganlar Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam). Hajga borolmagandim, sogʻligim boʻlmaydi, deganlarning haji, pulim boʻlmadi, pulim boʻlganda borardim deganlarning haji bu, imkoniyatim boʻlmadi, imkoniyatim boʻlganda boraman deganlarning haji bu* parchasidagi *miskinlarning, deganlarning* soʻzlari ana shu mantiqiy urgʻu olgan elementlardir.

Har qanday ogʻzaki matn ijrosida mantiqiy urgʻu bilan birgalikda emotsional urgʻu ham ishtirok etadi. Boisi har qanday notiq oʻz nutqining adresantga yetib borishini, taʼsir koʻrsatishni, tinglovchi tomonidan oʻzlashtirib olinishini maqsad qilib nutqiy vaziyatini shunga qarab shakllantiradi. Yuqoridagi tahlil vaqtida quyidagi jumlagi eʼtiborimizni qaratdik: *Oʻzingiz bilmaysiz, birodarlar! Bugun ixlos bilan, muhabbat bilan juma namozingizni oʻqisangiz, shunday oʻrningizdan turganingizda, yoyinki mana shu dargohning eshigidan chiqqaningizda, yoyinki joynamozingizdan shunday qimirlab turganingizda Allohning farishtalari namoi aʼmolingizni ochadi.*

Muallif ikkinchi gapga adresantning diqqatini tortish uchun emotsional urgʻu, yaʼni emfatik urgʻuni birinchi gapga – *Oʻzingiz bilmaysiz, birodarlar ga*, undagi *bilmaysiz* soʻziga bergan. Matnda urgʻuni *bilmaysiz* ga tushirish bilan notiq namozxonlarning diqqatini oʻziga jalb qila olgan, ularda, aytaylik, *nimani bilmas ekanmiz*, degan savol paydo qila olgan. Akademik A.Gʻulomov aytganiday, «...urgʻuning oxirdan koʻchirilishi emotsionallik ottenkasi bilan bogʻlangan». [15,6]

Fonologik taʼlimot asoschilaridan biri N.S.Trubetskoy nutqda soʻzlovchiga tavsif berishga xizmat qiladigan barcha vositalar ekspressivlikka ham xizmat qilishligini va bu vositalar turli-tuman boʻlishi mumkinligini taʼkidlagan. Shunga koʻra, supersegment elementlar ishtirokida yuzaga keladigan gap mazmunining, undagi emotsional-ekspressiv jihatlarning ifodalanishida ohangning roli katta boʻladi.

«Har qanday nutq oʻziga xos intonatsiya bilan talaffuz qilinadi. Melodika, urgʻu, nutq tempi, ovoz tembri va pauza kabi intonatsion vositalarning nutqdagi umumiy vazifalari maʼlum bir nutq yoki gapga xos intonatsiyani yuzaga chiqarish uchun xizmat qiladi. Intonatsiya nutqda asosan mazmuniy va grammatik strukturani shakllantiradi». [16,15-16]

Aytib oʻtish kerak, soʻzlovchi tinglovchiga yoki suhbatdoshiga nisbatan munosabatini intonatsiya orqali ifoda qiladi. Xuddi shunday diniy nutqda ham intonatsiya nutqning maqsadini, mazmunini, emotsionalligini, grammatik tuzilishini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Intonatsiyaning tarkibiy qismlaridan biri ohang (melodika)dir. Melodika termini «yunoncha melodikos soʻzidan olingan boʻlib, «melodik», «musiqali» degan maʼnolarni anglatadi, nutq melodikasi intonatsiyaning asosiy komponenti sanaladi». Melodika (ohang) gapdagi boʻlaklarni yoki

matn tarkibidagi gaplarni bir-biriga ulash vazifasi bilan birga, nutqni ifodali qilish vazifasini ham bajaradi. «Melodika intonatsiyaning asosiy va yetakchi tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, ovozning asosiy ton harakatidir. Intonatsiyaning melodik harakati tekis, ko'tariluvchi va pasayuvchi tonlardan iborat bo'lib, u gapning kommunikativ turini aniqlashda asosiy o'rin tutadi». [18,54]

Tahlildagi ma'ruzada ham ohang ana shunday ahamiyat kasb etganligini yarim soatlik ma'ruzada 20 marta qo'llangan undalma – *birodar* so'zi misolida ko'rsatib berishga harakat qildik. Avvalo shuncha miqdordagi gap tarkibida so'zning qo'llanish amplitudasi bir xil bo'lmaganligini ko'rish mumkin. Unga yoki yonidagi so'zga tushgan urg'u bu birlikning talaffuz ohangini o'zgartiradi – uning yuqorilab yoki pasayib turishiga olib keladi. S.Karimov ta'kidlaganidek, «Melodik ko'tarilish va pasayib turishlar tabiiy nutq, ya'ni so'zlashuv nutqiga xos xususiyat sanaladi. Uning monoton bo'lishi qiyin. Bu vaziyatga so'zlovchining individual manerasi ham, nutqiy vaziyat ham ta'sir ko'rsatishi mumkin». [19,54] Bu, o'z navbatida, ifoda mazmuni va ekspressiyasiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, *Muhtaram azizlar, mo'min-musulmon, aka-uka, yoru birodarlar!* gapida *azizlar, mo'min-musulmonlar, aka-ukalar, yoru birodarlar* elementlarining o'zaro uyushib kelishi bir xil ohangda talaffuz etilishini taqozo etadi.

***Birodarlar, ixlos bilan, muhabbat bilan juma namozini o'qiganlarga mana shunday martabalar nasib etadi*** gapida asosiy urg'u shu so'zga tushadi, yuqori tempda talaffuz qilinadi. Haqiqiy undalma sifatida tinglovchilarning diqqatini o'ziga qaratib olishga xizmat qiladi. Mana bu *Mana shunaqangi, birodarlar!* gapida urg'u *shunaqangi* ga tushgani bois, *birodar* ga kelganda temp pasayadi, binobarin, uning e'tiborni qaratish ottenkasi ham susayadi. *Inson, birodarlar, Alloh subhanahu va taolo bergan narsalarni Alloh berdi, deb e'tiqod qilmaydigan bo'lsa, aqlim bilan topdim, hunarim bilan topdim, deydigan bo'lsa, o'ziga o'zi shunday baho beradigan bo'lar ekanki, men xudomanmikan, deb o'ylab qoladi. Ana shirk, birodarlar! Inson Alloh subhanahu va taolosini tanimasa, Yaratuvchisini bilmasa, Yaratuvchi bergan ne'matlarini bilmasa, o'zini xudo deb bilarkan.* Gaplarida ham aynan shu holat kuzatiladi.

Garchi, shaklan transpozitsiyasi bir-biriga o'xshash bo'lsa-da, quyidagi *Bugun mana sizga Iso alayhissalom voqeasini aytib turibmiz, hech narsa adabiy emasligini albatta fikr qilaylik, birodarlar!* gapi tarkibidagi *birodarlar* ning ohangi mutlaqo farq qiladi. O'zidan oldingi *qilaylik* so'zidagi *-lik* qo'shimchasining da'vat ottenkasi *birodarlar* ning fonostilistik rolini kuchaytiradi. Asosiy diqqat *qilaylik* ka emas, *birodarlar* ga ko'chiriladi.

Diniy manbalarda «Voiz va'z asnosida ovozini bir xil tarzda ushlab turmasligi kerak. Chunki bu narsa jamoatda malollanishni paydo qiladi va nutqida yetkazishni maqsad qilgan ma'zolarga putur yetkazishi mumkin» deyilgan. [20,] Ma'ruza jarayonida ovoz toninining goh ko'tarilib, goh tushib turishi, pauzalarining mavjudligi imom nutqining ta'sirchanligiga xizmat qiladi.

Mana shu o'rinda H.Jamolxonovning «intonatsiya og'zaki nutqning majburiy fonetik komponentidir, usiz gap yoki nutq shakllanmaydi va ifodalanmaydi», degan fikrini eslash joiz bo'ladi. [21,170] M.Mirtojiyevning «intonatsiyaning emotsional asosi gap mazmuni bilan bog'liq bo'lishi shart emas. Mana shunda emotsionallikni yuzaga chiqarish vazifasi faqat intonatsiyada qoladi» [22,351] - degan fikrlari esa muhim prosodik element sifatida ohangning fonostilistik ahamiyatini yanada aniq ifoda etadi.

Diniy voizlar nutqiga xos intonatsiya ularning nutqini boshqa kishilar nutqidan farqlashga xizmat qiladigan vositalar bo'lib, diniy ulamolar nutqi ta'sirchanligi, ommani o'ziga jalb eta olishi bilan farqlanadi. Intonatsiya yordamida diniy nutq tushunarli, ta'sirchan va zalvorli bo'ladi.

Shuningdek, diniy nutqda tembrning ham alohida o'rni bor. Aytish mumkinki, nutqning ta'sirchanligida nutq egasining ovoz xususiyatlari nihoyatda ahamiyatli. Ayni jihat ayniqsa, diniy matnlarni o'qishda, qiroat qilishda yoki diniy mavzuda amru ma'ruf, naxiy munkar, maveze qilishda tez ko'zga tashlanadi. Bu jarayonda ovozning sifati o'ta muhimdir. Ovozi qalin yoki ingichka, past yoki baland, auditoriyani o'ziga jalb eta olmaydigan darajadagi ovoz shibidan diniy voiz chiqishi qiyin.

Diniy ulamolar ovozida sokinlik, salobat, o'ktamlik sifatlari bo'lishi talab etiladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bu sifatlar voizning ma'ruzalarining ta'sir kuchini oshiradi. Umuman olganda, diniy nutqda prosodik vositalarning ta'sir darajasi juda yuqori. Diniy notiqlik diniy tushuncha,

## TILSHUNOSLIK

tasavvur, bilim va ko'nikmalar yuqori bo'lgan shaxslarda mukammal shakllanadi, bilimlarni bayon etish mahorati ham shunga yarasha bo'ladi.

Zero, bunday talablarga amal qilib nutqini shakllantirgan din peshvosi nafaqat mazmun, balki prosodik jihatdan ham yuksak diniy-ma'rifiy nutq namunasini yuzaga chiqara oladi.

**XULOSA**

Xulosa sifatida aytish mumkinki, keyingi yillarda jahon tilshunosligi (N.S.Trubetskoy, K.O.Saparova) va o'zbek tilshunosligida A.G'ulomov, A.Abduazizov, N.A.Baskakov, A.S.Sodiqov, A.Nurmonov, E.Begmatov, H.Jamolxonov, N.Mahmudovlar amalga oshirilgan tadqiqotlarda o'zbek fonetikasi va fonologiyasi nazariy tomonlariga e'tibor qaratilgan bo'lsa, E.Qilichev, S.Karimov, G.Yaxshieva, A.Haydarovlarning ilmiy ishlari orqali fonostilistika sohasi rivojlantirildi. SHuningdek, M.Hakimov va V.Jabborovlar nutq tovushlari stilistikasini statistik metod asosida o'rganishgan bo'lsa [23], fonostilistik tadqiqotlarda eksperimental fonetika yordamida olingan natijalar birinchi planga qo'yilgan M.Mirtojiev va M.Gazievalarning tadqiqotlari o'zbek tilshunosligida mutlaqo yangilik sifatida e'tirof etildi.

**ADABIYOTLAR:**

1. Vandries J. Yazik. -M., 1937. -S . 16.
2. Zinder L. R. Obshaya fonetika. 2-izd. -M.: VSH., 1979. -S . 4
3. Qilichev E. O'zbek tilining praktik stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1985. –B. 88.
4. Alimov U. Oilada farzand tarbiyasi. –Toshkent, “Movarounnahr” nashriyoti.
5. Amonturdiyeva Sh. “O'zbekcha diniy matnlarning funksional-stilistik tadqiqi”: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori...diss. B-76. Samarqand, 2020 yil.
6. Hidoyat jurnali, 2019 yil № 10. – B.27
7. O'zbek tilining imlo lug'ati. – Toshkent: Fan, 1976. – B.631.
8. Hakimov M. Nutqiy aktlar nazariyasi. –Farg'ona, 2020. –B.41.
9. Gazieva M.M. Muloqot jarayonida prosodik vositalarning lingvopragmatik xususiyatlari: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ...diss. avtoref. – Toshkent, 2018.
10. Jamolxonov H. O'zbek tilining nazariy fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2009, -B.81-82.
11. Yusupova SH. Diniy matnlarning lingvopragmatik tadqiqi. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)...diss. – Farg'ona, 2021 yil.
12. Jamolxonov H. O'zbek tilining nazariy fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2009. – B.81-90.
13. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. –Toshkent, 2002. –B.117.
14. G'ulomov A. O'zbek tilida urg'u / Ayyub G'ulomovning ilmiy merosi. 5-kitob. – Toshkent: O'zMU nashri, 2009. – B.6.
15. Lingvisticheskiy entsiklopedicheskiy slovar'. –Moskva: SE, 1990. – S.292.
16. G'ozieva M. Prosodika. –Toshkent: Akademnashr, 2019. – B.54.
17. Karimov S. O'zbek tilining fonetik stilistikasi. – Samarqand, 2016. – B.32.
18. Mirtojiev M. O'zbek tili fonetikasi - Toshkent: Fan, 2013. – B.351.
19. Hakimov M., Jabborov V. Poetik nutqda tovushlarning xoslanishiga doir // O'zbek tili va adabiyoti, 2006, №4.

**Internet resurslari:**

1. [islom.uz/maqola/3293](http://islom.uz/maqola/3293) (murojaat etilgan sana: 02.07.2020)